

“Amaliy natijadorlik, Inson qadri - "Yangi O'zbekiston" strategiyasining bosh maqsadi”



“Amaliy natijadorlik, Inson qadri - "Yangi O'zbekiston" strategiyasining bosh maqsadi” Bugun, Xalq deputatlari Termiz shahar kengashining XXXXI-sessiyasida shahar hokimi Isroil Bo'rievich Xudoyberdiev Termiz shahrida 2021 yilda amalga oshirilgan islohotlar hamda 2022 yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalar yuzasidan “Xalqqa murojaat” qildi. Xalq deputatlari Termiz shahar kengashi deputatlari, tashkilot va korxonalar rahbarlari shuningdek, nodavlat tashkilotlar, jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan sessiyada shahar hokimi 2021 yilda amalga oshirilgan islohotlar hamda 2022 yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalarni belgilab olish, bu borada islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda, aholining yanada faolroq va tashabbuskor bo'lishiga erishish lozimligi ayniqsa, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, aholimizni rozi qilishimiz, ular uchun farovon hayot va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerakligi bu borada olib borilgan ishlar haqida atroflicha ma'lumot berdi.

Hisobotda “Obod mahalla” dasturi doirasida hududlarni rivojlantirish, xususan, kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari qurilishiga alohida e'tibor qaratilayotgani aytildi.

Sessiyada hududni 2022-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilab olingan ustuvor vazifalarga ham alohida to'xtalindi. Xususan, “Mahallabay” ishlash tizimini rivojlantirish hisobidan joylarda aholining o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash masalalarini rivojlantirish, «Temir daftar», «Yoshlar daftari» va «Ayollar daftari»ga kiritilgan fuqarolarning muammolarini hal qilish borasida amalga oshiriladigan ishlar haqida so'z yuritildi.

Shuningdek, kommunikatsiya, kam ta'minlagan oilalar turmush sharoitini yaxshilash, joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, «Har bir oila – tadbirkor» tamoyili asosida ishlab chiqarish va oilaviy biznesni yo'lga qo'yish borasidagi rejalar to'g'risida to'xtalindi.

Sessiya yakunida bugungi kunda aholi hayotini yaxshilash uchun dolzarb bo'lib turgan mahalliy budget mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanishda jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish, yangi ish o'rnlari yaratish masalalari muhokama etildi.



